



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

SHAHARLAR EKOLOGIYASINI YAXSHILASHDA AHOLI REKREATSIYA HUDUDLARI VA XUSHMANZARA JOYLARGA BO'LGAN E'TIBORNI KO'PAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Setmamatov Maqsud Bekturdiyevich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, "Arxitektura"
kafedrası arx.f.n, dotsent

Xodjayazov Atabek Shuxratovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, "Arxitektura"
kafedrası 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning cho'l hududi Urganch shahri ekologiyasini yaxshilash bo'yicha rekreatsion hududlarni ko'kalamzorlashtirish va yangidan tashkil qilish bo'yicha istiqbolli loyihaviy takliflarni ishlab chiqish.

Аннотация

В данной статье разработать перспективные проектные предложения по озеленению и реорганизации рекреационных зон для улучшения экологии Ургенча, пустынного региона Узбекистана.

Abstract

In this article, the development of promising project proposals for greening and re-organizing recreational areas to improve the ecology of the desert region of Uzbekistan Urgench.

Kalit so'zlar

rekreatsiya, cho'l, esplanada, Orol, sho'rlanish, tomchilatib, yomg'ir latib, samoviy bog'.

Ключевые слова

отдых, пустыня, эспланада, остров, солёность, капельный, дождь, небесный сад.

Key words

recreation, desert, Esplanade, Island, salinity, dripping, raining, heavenly garden.

Kirish

Aholi dam olish hududi, rekreatsiya - bu alohida funksional hudud hisoblanadi. Uning unsurlari, elementlari, shaharda aholi yashash joylarida, sanoat hududlarida va ulardan tashqarida qisqa muddatli (dam olish kunlari) va uzoq muddatli (ta'til paytida) (pansionatlar, o'quvchilar oromgohlari, bog'dorchilik xo'jaliklari) va boshqa dam olish joylari tashkil etiladi[1].

Respublika hududida bir qancha landshaft turlari mavjud bo'lib, ular quruq va nam subtropiklardan tortib doimiy muzliklar va qorliklardan iboratdir.

Asosiy qism

Aholi yashash hududlarining guruhli tuzilishida shahar tashqarisidagi dam olish maskanlarini bir qancha qisqa muddatli va uzoq muddatli dam olish hududlari yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Aholi yashash hududlari guruhli tizimining bir darajadagi tashkil etuvchilari – aholi joylashuvi, transport va tabiiy landshaft shahar tashqarisidagi dam olish hududlarining tashkiliy tuzilmasi bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Ular kompleks ravishda rekreatsion aloqalarning rivojlanish va taqsimlanish jarayoni mexanizmiga, ya'ni aholi yashash joylarining guruhli tizimidagi shahar tashqarisidagi dam olish hududlari rejaviy tarkibiga asos bo'ladi[1].

Har bir o'lkaning joylashgan hududiga qarab o'ziga xos iqlim omillari mavjud va u landshaft yechimlari bo'yicha iqlimiy regionga nisbatan tabiat va suv zahirasi bilan bog'liq bo'lgan omillari mavjud. Buni Xorazm iqlimi uchun quyidagicha izohlash mumkin.

Tabiiy - iqlimiy omillar. Shaharsozlik masalalarini hal etishda loyihalash jarayonining barcha bosqichlarida O'zbekiston hududlarining landshaft – iqlimiy rayonlashtirilishiga mos ravishda tabiiy muhitning regional, xarakterini hisobga olish lozim. O'zbekiston hududi 3 ta landshaft – iqlimiy regionga bo'lingan bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatga ega :

Region II – cho'llar, kam o'zlashtirilgan, suv ta'minoti yomon hududlar bo'lib, sug'oriladigan dehqonchilikka qulay emas. Faqat tuproqqa agrotexnik ishlov beribgina bu hududlarni o'zlashtirish mumkin. Hududda aholi kam bo'lib, tarqoq aholi hududlarida joylashgan. Ular cho'l bilan o'ralgan. Kommunikatsion aloqalar

tiklangan. Iqlim quruq va issiq, 120 kundan ortiq noqulay issiq havo oqimi hukmronlik qiladi. Shamol tezligi 3 m/sek dan ortiqroq. Qum va chang boʻronlari oyda 3-5 kun boʻlib turadi. Sunʼiy landshaftni tashkil etish, shamol yoʻlini toʻsish, tabiiy landshaftni faol qayta tashkil etish orqali aholi uchun qulay yashash muhitini yaratish mumkin. Hududda sugʻorish imkoniyatlarini yetarli emasligi, asosan, rejaviy yechimni shakllantirishda va tashqi taʼsirdan hududni himoya qilishda alohida yondashuvni talab qiladi[1].

Xorazm iqlim sharoiti boshqa hududlarga nisbatan Orol dengiziga yaqinligi uchun havosining shoʻrlanganligi, yer unumdorlik rentabelligi bir xil boʻlmagan holatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, qumli hududlarda rekreatsion hududlarni tashkil qilishda yerdagi rentabellik darajasi xohlagan oʻsimliklarni oʻstirishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Shoʻrlangan hududlarda yashovchi aholi uchun rekreatsion hududlarni tashkil qilishda ularga alohida yondashuv talab qilinadi. Chunki bunday yerlarda oʻsadigan daraxt turlari soni juda kam va sayqallangan, yaʼni shakl berilgan manzara kashf etishi uchun koʻplagan yillar talab qiladi. Undan tashqari, kanal suviga uzoqligi tomchilatib, yomgʻir latib suvgʻorishning imkoni mavjud boʻlgan taqdirda shoʻrlanish ushbu sugʻorish tizimidan ustunlik qilib suv tarkibidagi shoʻrlanishni oshirishi evaziga daraxtlarni boshida shu muhitga koʻnikib oʻsib ketgunicha qiyinchiliklar tugʻdiradi.

Xorazm iqlimi rekreatsiya hududlariga boʻlgan talab, yilning qish mavsumidan tashqari, barcha fasllarida ehtiyoj yuqoriligini inobatga olib, bunday dam olish hududlarini koʻpaytirish boʻyicha quyidagicha loyihaviy takliflarni tavsiya etamiz:

1. urganch shahridan oʻtuvchi shovot kanali har ikkala sohilidan kelajak 100 yillik reja asosida 3-5 qavatli rekreatsion hududga ega boʻlgan majmuaviy binolar qurish.

2. shahardagi koʻkalamzorlashtirilgan ochiq maydonlarni rekreatsiya hududi sifatida foydalanishga qaratilgan aniq rejalar qilish va maydonlarni boshqa maqsadlarda foydalanishiga yoʻl qoʻymaslik.

Xorazm iqlim sharoitida yozda issiq ob–havoda harorat ko‘tarilsa, uning namligi kamayadi. Qishda havo eng yuqori sovuq harorati (50 yillik o‘rtacha ma’lumotga ko‘ra) -25 C gacha boradi. Yozda esa, ayniqsa, havo qiziganda +50,60 C gacha boradi, aholi sayr qilishi eng qulay ob–havo ertalab va kechqurun soat 17-00 dan keyin bo‘ladi.

Xorazm iqlimi quruqligini inobatga olsak, aholi dam olishi uchun yangi rekreatsiya hududlarini tashkil qilishda Urganch shahrining markazidan o‘tuvchi Shovot kanali qirg‘oqlarida 3-5 qavatli katta prolyotli maydonlarni tashkil qilish va ushbu maydonlarda aholi dam olishini tashkil qilish g‘oyalarini ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Suv bo‘ylarida rekreatsiya hududlarini tashkil qilish bilan kelajak 100 yilda aholi sonining oshishi natijasida rekreatsion hududlarga bo‘lgan ehtiyoj oshishi mumkin.

Landshaft arxitekturasidan to‘g‘ri foydalanib, yashil o‘simliklarning Xorazm iqlim sharoitida juda soya berib, o‘sadigan daraxt (gujum, qarag‘ay) navlariga alohida e‘tibor berish, yoki ushbu o‘simliklarni pastki qismini yuqori o‘suvchi boshqa manzarali daraxtlarga (gujum, qarag‘ay) payvandlash yo‘llarini qilish.

Xorijiy tajribalardan ma’lumki, Ispaniyaning Barselona shahridagi Guel parkidagi keng yuqori esplanada maydoni va unda 100 ta ustunli zal mavjudligi, Xitoyning kanal bo‘ylarida qurilgan yuqori qavatli binolarida samoviy bog‘lar tashkil qilish tajribalarini Urganch shahri Shovot kanali bo‘ylarida yangicha loyihalarda qo‘llash [2,3] (1-2-rasm).



1-rasm. Ispaniyaning Barselona shahridagi Guel parki



2-RASM. XITOYDA KANAL QIRG'OQ BO'YLARIDA SAMOVIY BOG'LAR TASHKIL QILISH TAJRIBASI

Xulosa sifatida Urganch shahridagi kanal bo'ylari va mavjud rekreatsiya hududlarida ekologik sharoitni yanada yaxshilash uchun quyidagilarni tavsiya qilishimiz mumkin.

- Xorazm viloyatining poytaxti bo'lgan Urganch shahrining kelajak 100 yillik istiqbolli rejasi bilan aholi farovonligini inobatga olgan holda barcha sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda rekreatsiya hududlarini ham to'g'ri tashkil qilish rejalarini aniq belgilab olish.

Ushbu ilmiy tadqiqotda Xorazm viloyati cho'l hududida joylashganini, shaharsozlikda suv bo'ylarida qirg'oqqacha bo'lgan me'yorlarni inobatga olgan holda arxitektura obyektlarini joylashtirish bo'yicha yuqorida qayd qilingan chet-el tajribasi asosida yangi loyihalarni amaliyotga tatbiq qilish.

Xulosa

Bu bilan iqlimi quruq bo'lgan shaharda ekologiyani yaxshilashga qaratilgan tadbirlar, ya'ni o'simliklar o'sadigan maydonlarni ko'paytirish, bog' parklarning daraxtlarini ko'paytirish bo'yicha alohida sug'orish tizimlari bilan ta'minlashga e'tibor berish. Mikrorayonlarda ochiq maydonlarda daraxtzorlarni ko'paytirish bo'yicha tadbirkorlarga kichik savdo shahobchalarini qo'yishga ruxsat berishda atrofni obodonlashtirish bo'yicha shartnomalarga yangicha talablarni kiritish, ya'ni

ushbu ko'kalamzor hudud egasini belgilash bilan barcha maydonlar obodonlashtirilishiga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umarov O.Z. O'zbekistonda shahar atrofi rekreatsiya hududlarini tashkil etish masalalari (Toshkent dengizi misolida) magistrlik dissertatsiyasi. TAQI. T.2019.
2. <https://yandex.ru/video/preview/14555888501226519991>
3. https://www.tripadvisor.ru/Attraction_Review-g187497-d190624-Reviews-Park_Guell-Barcelona_Catalonia.html

ПЕРСПЕКТИВЫ УВЕЛИЧЕНИЯ ВНИМАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ К РЕКРЕАЦИОННЫМ ЗОНАМ И БЛАГОУСТРОЕННЫМ МЕСТАМ В УЛУЧШЕНИИ ЭКОЛОГИИ ГОРОДОВ.

М.Б.Сетмаматов,

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруний,

канд.арх.н, доцент

А.Ш. Ходжаязов

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруний,

докторант 1 курса кафедры "Архитектура"

Аннотация

В данной статье разработать перспективные проектные предложения по озеленению и реорганизации рекреационных зон для улучшения экологии Ургенча, пустынного региона Узбекистана.

Abstract

In this article, the development of promising project proposals for greening and re-organizing recreational areas to improve the ecology of the desert region of Uzbekistan Urgench.

Ключевые слова

отдых, пустыня, эспланада, остров, солёность, капельный, дождь, небесный сад.

Key words